



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

No8
MAXSUS SON



BAKALAVR TALABALARINIG MAQOLALARI TO'PLAMI



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Elektron nashr. 122 sahifa.

2025-yil noyabr

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'o'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Viktorovna, Candidate of Economic Sciences (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 28-fevraldagi
333/5-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

MEHMONXONA KORXONALARIDA INNOVATSION LOYIHALARNI AMALGA OSHIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	10
Erkaboyeva Jasmina Safarali qizi, Ochilova Hilola Farmonovna	
FAULT TOLERANCE AND SELF-HEALING IN IOT-ENHANCED P2P SYSTEMS	15
Ibrokhimkhuja Rikhsikhujayev, Mohit Bhandwal	
BIZNES BOSHQARUVIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI.....	22
Ikromov Boisxon Bahodir o'g'li, Ozodbek Musayev	
BIOLOGIYA FANINI O'QITISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA VIRTUAL LABARATORIYADAN FOYDALANISHNING SAMARADORLIGI.....	27
Turayeva Sabrina Kamoliddin qizi, Qodirov Farrux Ergash o'g'li	
YASHIL LOGISTIKA VA TRANSMILLIY KORPORATSIYALAR.....	32
Rafiqov Abror Baxtiyor o'g'li, Narzullayev Elmurod Shuxrat o'g'li	
OMBORXONALARNI BOSHQARISHDA RFID TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISHNI AFZALLIKLARI	36
Mirkamolov Mirsardor Mirxamdami o'g'li, Yuldashev Abduhakim Abdukarimovich	
STARTAPLAR VA KICHIK BIZNESNING IQTISODIY O'SISH VA RIVOJLANISH JARAYONLARIDAGI ROLI	41
Abdumajidova Muxlisa Alisher qizi, Umarova Mukaddas Abbasovna	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MILLIY SUG'URTA TIZIMIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI XORIJ TAJRIBASI ASOSIDA QO'LLASH ISTIQBOLLARI	46
Sobirova Ozoda Rustamovna, Safarov Javohir Ismoilovich	
IQTISODIY XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHDA MILLIY TO'LOV TIZIMLARINING ELEKTRON TIJORATDAGI AHAMIYATI.....	50
Teshayev Sayimbek Anvarovich, Tashmuxeamedova Yayra Atxamovna	
CHANGES IN PULSE RATE IN BLOOD VESSELS DURING PHYSICAL EXERCISE	56
Pirnazarov Elchin Anvar o'g'li, Yoldasheva Roila Jumaevna	
JAHON IQTISODIYOTIDA GLOBAL XAVFSIZLIK VA IQTISODIY BARQARORLIK	61
Qayumov Sobit Obid o'g'li, Xasanov Nodir Erkinovich	
LABOR RESOURCES – THE MAIN FACTOR OF NATIONAL DEVELOPMENT.....	68
Qurbanov Tolmasjon Namoz ugli, Mustafayev Golib Sultonmurodovich	
ISTE'MOLCHI TANLOVI VA NAFLILIK NAZARIYASINI ILMIY ASOSLARI.....	75
Q.Abdukarimov, M.Keldibekova, F.Umarov	
KORXONALARDA RAQAMLI MARKETINGDAN FOYDALANISHNI TAKOMILLASHTIRISH	80
Tumaris Nietullaeva, Alimxodjayeva Nargiza Elshodovna	
OMMAVIY AXBOROT VOSITALARINING INSON VA JAMIYAT HAYOTIDAGI TA'SIRI HAMDA AXBOROT XURUJLARI	87
Kodirov Ozodbek, F.Umarov	
QURILISH MATERIALLARI SANOATIGA KIRITILAYOTGAN INVESTITSIYALAR TAHLILI VA TARMOQNING MAMLAKAT EKSPORTIDAGI O'RNI.....	93
G'ulomiddinov Bobobek Sardorjon o'g'li, G'ulamov Ilhom Akramovich	
BIZNESNI BOSHQARISHDA ERP TIZIMIDAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI	98
Abduhamidova Shodiyaxon Abdushukur qizi, Yuldashev Abduhakim Abdukarimovich	
O'ZBEKISTON VA AFG'ONISTON HAMKORLIK MUNOSABATLARINING YANGI BOSQICHI	103
Fayzullayev Aminjon, F.Umarov	
O'ZBEKISTONDA HUDUDLAR IQTISODIY RIVOJLANISHIDAGI TAFOVUTLAR	110
Najmiddinova Malikabonu Asrorovna, F.Umarov	
TO'QIMACHILIK SANOATIDA CHARM-POYABZAL TARMOG'INING RIVOJLANISH YO'NALISHLARI XUSUSIDA	117
Mahmudov Orifbek Abdumomin o'g'li, Azmiova Feruza Payziyevna	



TO'QIMACHILIK SANOATIDA CHARM- POYABZAL TARMOG'INING RIVOJLANISH YO'NALISHLARI XUSUSIDA

Mahmudov Orifbek Abdumo'min o'g'li

Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti talabasi

ORCID:0009-0001-4729-3213

E-mail: orifbekmakhmudov@gmail.com

Ilmiy rahbar:

Azmiova Feruza Payziyevna

Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti Professori

ORCID:0009-0007-8007-7276

E-mail: azimovaf@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada to'qimachilik sanoatining charm-poyabzal yo'nalishiga oid jarayonlar – charm, mo'yna xom ashyosi va junni tayyorlash, saqlash hamda qayta ishlashning texnologik bosqichlari, shuningdek, jun, qorako'l va sun'iy charmdan tayyorlangan mahsulotlarni ishlab chiqarish bilan shug'ullanuvchi korxonalarning rivojlanish yo'nalishlari va o'ziga xos jihatlari yoritilgan. Tahlillar ushbu tarmoqning zamonaviy iqtisodiy muhitdagi o'rni, innovatsion yondashuvlar va eksport salohiyatini oshirish omillarini ochib beradi.

Kalit so'zlar: charm-poyabzal, charm, mo'yna xom ashyosi, jun tayyorlash, saqlash, qayta ishlash, chorvachilik mahsulotlari, jun, qorako'l, sun'iy charm mahsulotlari.

Abstract: This article explores the key aspects of the textile industry related to the leather-footwear sector, including the preparation, storage, and processing of leather, fur raw materials, and wool. It also examines the development directions and specific characteristics of enterprises engaged in producing goods made from wool, karakul, and artificial leather. The analysis highlights the sector's role in the modern economic environment, the implementation of innovative technologies, and the factors contributing to the growth of export potential.

Key words: leather-footwear industry, leather, fur raw materials, wool preparation, storage, processing, livestock products, wool, karakul, artificial leather products.

Аннотация: В данной статье раскрываются особенности текстильной промышленности в секторе кожевенно-обувного производства, включая подготовку, хранение и переработку кожевенного сырья, меха и шерсти. Также рассматриваются направления развития предприятий, занимающихся производством изделий из шерсти, каракуля и искусственной кожи. Аналитический обзор подчеркивает значимость отрасли в современном экономическом пространстве, внедрение инновационных технологий и факторы повышения экспортного потенциала.

Ключевые слова: кожевенно-обувная продукция, кожа, меховое сырьё, подготовка шерсти, хранение, переработка, продукция животноводства, шерсть, каракуль, изделия из искусственной кожи.

KIRISH

Bugungi kunda mamlakatimizda ishbilarmonlik muhitini yanada yaxshilash, charm-poyabzal tarmog'ini jadal rivojlantirishga qaratilgan maqsadli dasturlar izchil amalga oshirilib kelinmoqda. Ushbu maqsadli davlat dasturlarining samarasi bugungi kunda mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushi 53,9 foizga yetganligida o'z aksini topadi. Ushbu ko'rsatkich 2000-yilda 31,0 foizni, 2020-yilda esa 52,5 foizni tashkil etganligini aytib o'tish maqsadga muvofiq.



Respublikamizda hozirgi vaqtda to'qimachilik sanoatini yanada rivojlantirishga jiddiy e'tibor qaratilib, sifat menejmenti tizimini joriy etish, boshqarishda innovatsion usullarni qo'llash borasida keng ko'lamdagi amaliy ishlar qilinmoqda. 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida: "... iqtisodiyot tarmoqlarini transformatsiya qilish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish, inson huquqlari va manfaatlarini so'zsiz ta'minlash hamda faol fuqarolik jamiyatini shakllantirishga qaratilgan islohotlar" ustuvor yo'nalish sifatida belgilandi [1].

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida mamlakatimizda to'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini rivojlantirish, charm-poyabzal tarmog'ini, soha korxonalarining investitsiya va eksport faoliyatini qo'llab-quvvatlash bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilishi natijasida respublikada ishlab chiqarilayotgan paxta tolasi to'liq va ip kalavaning 45 foizi qayta ishlanmoqda. Shuningdek, sohaning eksport salohiyati 3,2 milliard dollardan oshdi [2].

Poyabzal mahsulotlari insonlarning kundalik turmush faoliyati uchun eng zarur komponentlar qatoridan muhim o'rin egallagan. Poyabzal hozirgi zamon kishisi ust-boshining ajralmas va muqobili bo'lmagan atributi hisoblanadi. Shunday ekan, har bir mamlakatda, shu jumladan O'zbekistonda ham poyabzal bozorining mavjud bo'lishi shartdir. Agar O'zbekistonning iqlim va ijtimoiy sharoitlaridan kelib chiqadigan bo'lsak, aholi jon boshiga talab etiladigan muvofiq iste'mol me'yori o'rtacha 2,6 juft poyabzalga to'g'ri keladi. U holda, bizning hisoblarimizga ko'ra, poyabzal ichki bozori hajmi natural ifodalanganda (mahsulot ifodasida) bir-yilda o'rtacha 74 mln. juft poyabzalni, qiymat ko'rinishida – 3 786 mlrd so'm yoki 2 mlrd AQSH dollarini tashkil etadi.

Agar kerakli poyabzalning yarmi – bu esa taxminan bir-yilda 37 mln. juftga teng – respublikada ishlab chiqariladigan bo'lsa, 2 mln. odamni ish bilan ta'minlash mumkin bo'lar edi. Albatta, hech bir tarmoq yaqin-yillar ichida buncha miqdorda ish o'rnini ta'minlab bera olmasligi muqarrar.

Poyabzal bozorining shu qadar muhim ahamiyatga ega ekaniga qaramay, O'zbekistondagi rasmiy statistik ma'lumotlar haqiqatda mazkur tarmoqda zaxiralardan yetarli darajada foydalanilmayotganligini va o'sish salohiyati mavjud imkoniyatlar darajasidan ancha pastligini ko'rsatmoqda.

Poyabzal ishlab chiqarish, umuman, tabiiy charmga ishlov berish san'ati O'zbekistonda an'anaviy hunarmandchilik tarmog'i hisoblanadi. Bu, birinchi navbatda, hududning boy xomashyo bazasi bilan bog'liq. Charm-poyabzal tarmog'ining asosiy xom ashyosi qoramol va qo'y-echki terisi hisoblanadi, ular ichki bozorda yetarli miqdorda mavjud. Respublikada bir-yilda o'rtacha 11,0 mln dona teri xom ashyosi, shu jumladan 7,0 mln bosh qo'y-echki va 4,0 mln bosh qoramol terisi olinadi [3].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Tadqiqot natijasi ko'rsatadiki, iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitlarida sanoat korxonalari samaradorligini oshirishning nazariy va metodologik masalalariga iqtisodchi olimlar tomonidan turlicha yondashuvlar shakllantirilgan.

Abalkin L., Ayvazyan Z., Alpatov A., Aleksandrovich Y.M., Astaxov A., Bachurin A., Bivan A.A., Bogdanovich V.V., Deryabina M., Yevseyev A., Zavarzina N., Loginov V., Kojin S.V., Kruk M., Kurnisheva I., Mitskevich V., Tutundjyan A., Shimov V.N. va boshqa MDH mamlakatlarining iqtisodchi olimlari tomonidan o'rganilgan.

Sanoat ishlab chiqarishini rivojlantirish, sanoat tarmoqlari, xususan yengil sanoat korxonalari faoliyatining ishlab chiqarish samaradorligini ta'minlash, bozor iqtisodiyoti talablarini e'tiborga olgan holda ularning boshqaruv tarkibini takomillashtirish, shuningdek sanoatning texnik-texnologik salohiyatini oshirish muammolari mahalliy olimlar – Askarov M.A., Iskanderov I.I., Iminov T.K., Qodirov A.M., Mahkamov R.G., Maqsudov S.S., Maqkamova M.A., Maxmudov N. M., Rasulev A.F., Saidova G.K., Sokolova L.A., Tursunxo'jayev M.L., Tuxliyev I. S., To'raxujayev M., Temirova M.I., Tursunov X.K., Xo'jayev S.S., Hikmatov O.X., Yusupova N.M. va boshqa olimlarning ishlarida chuqur ifodasini topgan [9-11].

TADQIQOT METOLOGIYASI

Charm-poyabzal tarmog'ini rivojlantirishda olimlar va soha vakillari bilan suhbat, ularning yozma va og'zaki fikr-mulohazalarini tahlil qilish, ekspert baholash, jarayonlarni kuzatish, iqtisodiy hodisa va jarayonlarga tizimli yondashuv, muallif tajribalari bilan qiyosiy tahlil o'tkazish orqali tegishli yo'nalishlarda xulosa, taklif va tavsiyalar berilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bugungi kunda respublika charm-poyabzal sanoati jadal rivojlanmoqda. Bu sohadagi muhim yo'nalishlar tayyor mahsulotlar bozorida ham, xom ashyo bozorida ham import o'rnini bosishga qaratilmoqda.

Mustaqillikning dastlabki-yillarida charm-poyabzal sanoati sohasidagi islohotlarning asosiy maqsad va vazifalari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2000-yil 23-fevraldagi "Respublika iqtisodiyotining



charm-poyabzal tarmog'ini boshqarish tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi Farmonida aniq belgilab berilgan [4]. Natijada yangi-yangi korxonalar tashkil etildi, zamonaviy texnologiyalar joriy qilina boshlandi. "O'zbekcharm-poyabzali" charm, mo'yna va poyabzal korxonalari uyushmasining tashkil etilishi bilan respublika poyabzal sanoati asta-sekinlik bilan bo'lsa-da, qayta tiklana boshladi.

"O'zbekcharm-poyabzali" uyushmasi tarkibida 252 ta korxona bo'lib, ularning 73 tasi turli viloyatlarda joylashgan charm, teri xom ashyosi tayyorlash korxonasi; 45 ta charm xom ashyosini qayta ishlash; 129 ta poyabzal ishlab chiqarish korxonasi; 4 ta charm-galantereya korxonasi va bitta sun'iy teri ishlab chiqarish korxonasidan iborat.

Modernizatsiya sharoitida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 3-maydagi PQ-3693-sonli "Charm-poyabzal va mo'ynachilik sohaslarini rivojlantirish va eksport salohiyatini oshirishni yanada rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qaroriga asosan, "O'zbekcharm-poyabzali" uyushmasi "O'zcharsanoat" uyushmasi (keyingi o'rinlarda – Uyushma deb yuritiladi) etib qayta tashkil etildi [5].

"O'zcharsanoat" uyushmasi tarkibiga charm, mo'yna xom ashyosi va jun tayyorlash, saqlash va qayta ishlash, chorva mollarini avtomatlashtirilgan holda so'yish, jun, qorako'l va sun'iy charmdan buyumlar, charm-attorlik mahsulotlari, poyabzal ishlab chiqarish bilan shug'ullanuvchi tashkilotlar, shuningdek boshqa tashkilotlar ixtiyoriy ravishda kirgan holda faoliyat olib bormoqda.

Bugungi kunda Uyushma tarkibida jami 511 ta ishlab chiqarish korxonasi bo'lib, jumladan:

- 35 ta charm ishlab chiqaruvchi korxonalar;
- 250 ta poyabzal ishlab chiqarish korxonalari;
- 55 ta charm-attorlik mahsulotlari ishlab chiqarish korxonalari;
- 51 ta charmdan kiyim ishlab chiqaruvchi korxonalar;
- 95 ta avtomatlashtirilgan zamonaviy qushxonalar;
- 25 ta qorako'l va junni qayta ishlash korxonalari.



1-rasm. "O'zcharsanoat" uyushma tizimidagi korxonalarning ishlab chiqarish mahsulot turlari

So'nggi-yillarda respublikamiz hukumati tomonidan charm-poyabzal sohasiga ko'rsatilayotgan e'tibor va har tomonlama qo'llab-quvvatlash choralari, shuningdek, soha ishlab chiqaruvchilarining ishtiyoqi va ishbilarmonligi natijasida charm-poyabzal tarmog'i yuqori sur'atlar bilan rivojlanib borayotganiga guvoh bo'layapmiz.

Biznes muhitini yaxshilash va jahon moliya tizimiga integratsiya bo'lish maqsadida milliy iqtisodiyotimizni tubdan isloh qilish sharoitida charm-poyabzal industriyasida ro'y berayotgan ijobiy o'zgarishlar chet ellik hamkorlar va investorlarning ko'proq jalb qilinayotganligini ko'rsatmoqda.

Uyushma tarkibiga kirgan korxonalar tomonidan sifatli, iste'molchilar uchun qulay va xaridorgir bo'lgan mahsulotlar ishlab chiqarilishini tizimli va izchil ravishda tashkil qilish choralari ko'rildi, shuningdek, mamlakatimiz aholisini zarur charm-poyabzal mahsulotlari bilan ta'minlash bo'yicha zarur tadbirlar amalga oshirildi.



1-jadval. Charm poyabzal va mo'ynachilik mahsulotlari 2023-2025-yillar bo'yicha asosiy ishlab chiqarish ko'rsatkichlari va maqsadli parametrlari to'g'risida

No	Ko'rsatkichlar nomi	O'lchov birligi	2023yil fakt	2024yil yakuni	2025yil reja
1	Tovar mahsuloti (solishtirma narxlarda)	mlrd.so'm	5530,8	7696,9	11511,9
2	Charm mahsulotlari	mln.kv.dm	2179,4	2470,9	2772,0
3	Poyabzal ishlab chiqarish	mln.juft	205,3	246,4	306,2
4	Charm attorlik mahsulotlari	mlrd.so'm	120,3	153,7	214,5

1-jadval ma'lumotlarini tahlil qilarkanmiz, o'tgan 2024-yil yakuni bo'yicha:

- 7 696,9 mlrd so'mlik tovar mahsulotlari (o'sish 117,5%);
- 2 470,9 mln kv. dm charm mahsulotlari (141,2%);
- 246,4 mln juft poyabzal mahsulotlari (136,2%);
- 153,7 mlrd so'mlik charm-attorlik mahsulotlari (113,5%) ishlab chiqarildi.

Bu ko'rsatkichlar salmog'ining oshishi 2024-yilda maqsadli parametrlar rejalashtirilganidan dalolat beradi.

Tahlillarga ko'ra, O'zbekistonda poyabzalga bo'lgan talab-yildan-yilga oshib bormoqda. Ushbu vazifaning yechimini topish maqsadida mahalliy xom ashyodan furnitura, yordamchi va butlovchi materiallar hamda boshqa mahsulotlar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish bo'yicha tarmoq dasturi ishlab chiqildi.

Uyushmaning charm xom ashyosini qayta ishlovchi korxonalari tomonidan har-yili 500 mln kv. dm dan ortiq charm tovarlar ishlab chiqariladi va qayta ishlanadi. Ushbu mahsulotlarning eksport hajmi esa 20,0 mln AQSH dollarini tashkil etadi.

Respublikaning poyabzal va charm-galantereya korxonalarida-yiliga umumiy miqdori 25,0 mlrd so'mlik, 17,0 mln dan ziyod juft yuqori sifatli poyabzal, zamonaviy charm kiyim-kechaklar va charm-galantereya buyumlari ishlab chiqarilmoqda.

Hozirgi kunda mamlakat charm-poyabzal sanoatida o'sish dinamikasi kuzatilmoqda va uning rivojlanishidagi muhim yo'nalishlardan biri tayyor mahsulotlar bozorida ham, xom ashyo bozorida ham import o'rnini egallash hisoblanadi. Tarmoq korxonalarida barcha turdagi maxsus poyabzallar ishlab chiqarish yo'lga qo'yilgan, ayollar, bolalar va o'smirlar uchun zamonaviy poyabzallar ishlab chiqarish kengaymoqda.

Hozirda respublikada poyabzal mahsulotlari ishlab chiqarish va uni sotish bilan quyidagi korxonalar shug'ullanmoqda:

- "O'zcharsanoat" uyushmasi tarkibiga kiruvchi korxonalar;-
- uyushma tarkibiga kirmagan, shuningdek hududiy tasarrufdagi korxonalar;
- davlat ro'yxati guvohnomasi asosida poyabzal ishlab chiqarish yoki tikish bilan shug'ullanuvchi xususiy tadbirkorlar;
- import qiluvchilar.

Shuningdek, import xom ashyosi xaridini sezilarli tarzda qisqartirishga erishildi. Avval ham ta'kidlab o'tganimizdek, mamlakatda poyabzal ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan tagcharm va yelimdan tashqari barcha zarur butlovchi materiallarni ishlab chiqarish yo'lga qo'yilmoqda, bugungi kunga kelib ushbu tovarlar hajmini oshirish bo'yicha ko'lamli ishlar olib borilmoqda. Yaqinda qolip ishlab chiqarish ishlari boshlab yuborildi. Mahalliy korxonalar sintetik materiallardan faqat tagcharm ishlab chiqarishda foydalanmoqdalar, poyabzal ishlab chiqarishda esa faqat tabiiy materiallar ishlatiladi.

O'zbekiston Respublikasining "Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqqligi to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 2-fevraldagi PF-5653-sonli "Axborot sohasi va ommaviy kommunikatsiyalarni yanada rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni [7], O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 15-fevraldagi 125-sonli "O'zbekiston Respublikasi davlat va xo'jalik boshqaruvi organlarining axborot xizmatlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori hamda "Xalq davlat idoralariga emas, balki davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak!" degan g'oya asosida davlat va jamiyat hayotidagi muhim masalalar bo'yicha o'tkaziladigan matbuot anjumanlarining 2019-yil I yarim-yillik rejasi ijrosini so'zsiz va o'z vaqtida ta'minlash maqsadida, "O'zcharsanoat" uyushmasi tomonidan joriy-yilning I choragida qator tadbirlar tizimli va samarali ravishda amalga oshirildi [8].

Jumladan, "O'zcharsanoat" uyushmasi a'zolarining umumiy yig'ilishlari va "O'zcharsanoat" uyushmasi boshqaruv yig'ilishlarida charm, mo'yna xom ashyosi va jun tayyorlash, saqlash va qayta ishlash, chorva mollarini avtomatlashtirilgan holda so'yish, jun, qorako'l va sun'iy charmdan buyumlar, charm-attorlik mahsulotlari, poyabzal ishlab chiqarish bilan shug'ullanuvchi va boshqa tashkilotlarni qonunchilik talablari asosida qo'llab-quvvatlash masalalari muhokama qilib borildi.



Shuningdek, Uyushma a'zolari – tashkilotlarning mamlakatimizda va chet davlatlarda o'tkazilgan xalqaro ko'rgazmalar va yarmarkalarda ishtirok etishlari samarali tashkil etilib borildi va xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatida yuzaga kelayotgan muammolarni hal etish choralari ko'rildi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, tadbirkorlik subyektlariga charm-poyabzal va mo'ynachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishda, korxonalarda ilg'or texnologiyalarni, xalqaro standartlar talablariga muvofiq sifat menejmenti tizimini tatbiq etishni rag'batlantirishda, Uyushma a'zolari tashkilotlarini modernizatsiya qilish va texnik jihatdan qayta jihozlashda, ularning eksport salohiyatini oshirishda va eksport geografiyasini kengaytirishda har tomonlama uslubiy va amaliy yordamlar ko'rsatildi.

1. Keyingi-yillarda mamlakatimizda kichik biznesni rivojlantirishda ularning imkoniyatlaridan to'liq foydalanish, charm-poyabzal korxonalariga innovatsiyalarni joriy etishni rag'batlantirishga qaratilgan yangi tizimning ishlab chiqilishi maqsadga muvofiq. Bu borada mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish orqali makroiqtisodiy barqarorlikka erishish uchun zamin yaratiladi.

2. Ishlab chiqish, tashkiliy izlanishlar nafaqat tovarning sotilishi, realizatsiya qilinishi, tovarning iste'molchiga yetib boruniga qadar bo'lgan jarayonni o'z ichiga oladi, balki korxonaning istiqbolli, strategik rejalarini tuzishga, korxonani muntazam foyda bilan ta'minlab, uni uzluksiz oshirib borishga, korxonaning nufuzi oshirishga o'z hissasini qo'shib borishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" Farmoni. // <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 10-yanvardagi PF-2-son Farmoni. <https://lex.uz/uz/docs/-6351331>
3. "O'zbekcharm-poyabzali" uyushmasining 2005-2011-yillar uchun o'rtacha-yillik ma'lumotlari.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 3-maydagi PQ-3693-sonli "Charm-poyabzal va mo'ynachilik sohasini rivojlantirish va eksport salohiyatini oshirishni yanada rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori. <https://lex.uz/docs/-3720454>
5. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 2 fevraldagi PF-5653-sonli "Axborot sohasi va ommaviy kommunikatsiyalarni yanada rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni.
7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 15-fevraldagi 125-sonli "O'zbekiston Respublikasi davlat va xo'jalik boshqaruvi organlarining axborot xizmatlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori, shuningdek "Xalq davlat idoralariga emas, balki davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak!" g'oyasi asosida o'tkazilgan matbuot anjumanlari ma'lumotlari.
8. Temirova M. I., Qodirov T. J. Charm va mo'yna texnologiyasi. – Toshkent: Turon iqbol, 2005. 256 bet.
9. Maqsudova U.M. Poyabzal materiallarini me'yorlash. – Toshkent: Fan, 2004.
10. Турсунов Х.Қ., Хўжаев С.С. Конспект лекции по оборудованию производства изделий из кожа и основам его проектирования. – Toshkent, 2000.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

8-Maxsus son. Bakalavr talabalarining maqolalari to'plami

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>